Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X

OMONIMLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

Saydiyeva Dilafruz Oybek qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
Telefon: +998935820529
aliqulova.dilafruz@gmail.com

Abstract. Omonimlar mavzusini o‘qitish jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga mavzuni ham oson va tez o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bugungi zamon talabi talabchan va tez fikrlaydigan o‘quvchilarni yetishib chiqishi uchun dars jarayoniga ularni qiziqtirish uchun turli metodlardan foydalanmoqda. Tez sur’atlarda mamlakatimiz rivojlananayotgan bir paytta o‘quvchilarni fanga va mavzuga qiziqtirish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Keywords: Til, so‘z, omonimlar, interfaol metod, metodika, strategiya, “Aqliy hujum”, “Baliq skaleti”, “Delfi”, strategiyasi, “Menga so‘z bering!” strategiyasi.

Tilimiz juda boy til hisoblanib, bobomiz Alisher Navoiy mehrini qozongan. Bizning turkiy til boyligimizning imkoniyatlarini ochiq ko‘rsatib berish uchun Navoiy “Xamsa” asarini turkiy tilda yozgan.

Insonning ma’naviy kamolotga erishishda, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida ona tilining o‘rni juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidneti I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarida ulkan ma’no bor: “Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”[1, 78-b.].

Til ichki va tashqi tomondan boyib boradi. Tilni ichki tomondan boyishiga omonimlar sinonimlar yordam beradi. Tashq tomondan boyishi esa uning boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishi hisoblanadi. Bir predmet yoki harakatni vaqt o‘tishi bilan boshqa bir predmet yoki harakat nomi bilan atashimiz mumkin. Ko‘p hollarda omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni adashtirish holatlariga duch kelamiz. Omonim so‘zlarning ma’nosi orasida o‘zaro bog‘liqlik bo‘lmaydi va turli so‘z turkum doirasida uchrashi mumkin. Masaln, yoz(fasl), yoz(fe’l-yozmoq)kabi. Ko‘p ma’noli so‘zlar o‘rtasida esa bog‘liqlik bo‘ladi va ular bir turkum doirasida uchraydi. Omonimlar shakli bir xil, ma’nolari har xil (o‘zaro bog‘lanmagan) leksemalardir (yuqoridagi misollar). ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. [2,128-b.]. Bunday omonimlarning ko‘pchiligi bir so‘z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil boladi. Qiyos qiling: ot («ism») - otim, oting, oti; otni, otning, otga...kabi,ot («hayvon») - otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi. Yana: bo 'sh (sifat) — «ichiga hech narsa solinmagan»: bo 'sh chelak kabi; bo‘sh (sifat) — «tarang tortilmagan»: arqonni bo‘sh tortib bog‘lamoq kabi. Yana qaraymiz o‘t («olov») - o‘t («maysa»), kamar («qayish, ko‘ndan ishlangan belbog‘») — kamar («daryo, tog‘larda suv o‘yib ketgan chuqur joy») kabi. [3. 177-b]. Demak, omonimlarni aniqlashda birinchi navbatta so‘zning tashqi ko‘rinishi e’tiborga olinar ekan. O‘zbek tilida omonimlar

ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan: Adash so‘zi ismi boshqa bir insonning ismi bilan bir xil bo‘lsa unga shu tariqa murojaat qiladi. Yasha adash! – xursand bo‘lib ketdi Qudrat. Adash so‘ziining ikkinchi ma’nosi “Adashmoq” ya’ni yo‘lini yo‘qotmoq degani. Bu yerga adashib kelib qolibman.

Biz omonimlarini Turli interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar ongiga singdiramiz.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. [4,5-b.]

-ta'lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish; ta'lim oluvchining

- yuqori darajada rag‘batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metod ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati orqali uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchilarning ta’lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi. Didaktik o‘yinlar 3 turga bo‘linadi.

1. Tinch o‘yinlar

2. Harakatli o‘yinlar

3. Aralash o‘yinlar

Omonimlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish” mavzusida quyidagi samarali interfaol metodlardan foydalanish mumkin:

“Aqliy hujum” metodi. Masalan, o‘qituvchi bir xil yozilib, turli ma’noga ega so‘zlarni aytadi (masalan: “ol”, “yuz”). O‘quvchilar shu so‘zning turli ma’nolarini tezkor aytishadi. Bu metod o‘quvchilarning fikrlashini faollashtiradi.

“Klaster” metodi. Doskaga bitta omonim so‘z yoziladi. Atrofida uning turli ma’nolari yozib chiqiladi. Masalan: “yuz”, (100), (inson yuzi), ari (hasharot), ari(arimoq-fe’l).

“Rol o‘ynash” metodi. O‘quvchilar omonim so‘zlar ishtirokida kichik sahna ko‘rinishlari tayyorlaydi. Masalan, “ol” so‘zi bilan turli vaziyatlar.

“Top va izohla” o‘yini. O‘qituvchi gaplar beradi. O‘quvchilar omonim so‘zlarni topib, ma’nosini tushuntiradi.

“Baliq skeleti” metodi O‘qituvchi muammo tashlaydi o‘quvchilar sabab topadi. Muammo: “Omonimlarni tushunish qiyinligi” Sabab va yechimlar skelet shaklida yoziladi.

Ya’na Omonimlar mavzusida quyidagi metoddan foydlanish mumkin. “Delfi” strategiyasi bu

strategiyada o‘quvchilarga biror bir so‘z beriladi. Ular bu so‘zning ma’nosini topishi kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilardan u so‘zning ma’nosini turli xil gaplar bilan misol keltirilishi so‘raladi. Berilgan misollardan eng to‘g‘rilari saralab olinadi. Bunday misollarni har bir o‘quvchi keltirishi kerak bo‘ladi. Eng oxirida ularning misollarni to‘planib yakuniy fikr bildiriladi. Bu strategiya orqali o‘quvchilarni ham mustaqil fikrlash ham jamoaviy ishlash qobiliyatlarni rivojlantirishimiz mumkin bo‘ladi. “Menga so‘z bering!” strategiyasi. Bu strategiyada o‘quvchi (talaba)larga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha yoki biror bir omonim bo‘yicha o‘zlarining shaxsiy fikrlarini bildiradilar va fikrlarini dalilllar bilan isbotlaydilar , dars davomida turli xil tanqidiy fikrlar bildirilishi mumkin, shunday fikrlar bildirilgan vaqtda o‘z fikrlarini himoya qilishi va yakuniy xulosalarini bildirishi kerak bo‘ladi. Bu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish va uni bildirishi, boshqalarga yetkazib berish kabi qobiliyatlarni shakllanitirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, bunday interfaol metodlar o‘quvchilarni tezkorlikka va mustaqil fikirlash qobilyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tilimizning so‘zlarini yanada kopaytirish uchun faqat chetdan so‘z o‘zlashtirish kerak emas, balki ichki imkoniyatlarni qo‘llay bilish zarurdir. Bizning maqsadimiz kelajak avlodlarni o‘z tilimiz boyligidan bahramand etishdir.

REFERENCES

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 85-b.
2. Jamolxonov. H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent: Talqin, 2005
3. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
4. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. "Journal of Natural Science" Nº2(7) 2022 y
5. Ro‘ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z.Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent 2013
6. Adabiyot o‘qitish metodikasi / o‘quv qo‘llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova.Toshkent nashriyoti, 2018-yil. – 352 bet.